Rivojlangan davlatlar (Germaniya va Buyuk Britaniya)da psixologik hisobotsiz voyaga yetmaganga nisbatan tarbiyaviy yoki jazo chorasi qo'llashga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekistonda esa pedagog va psiholog ishtiroki formal yoki deyarli yo'q, xulosalar sud uchun majburiy emas, qaror qabul qilishga real ta'sir qilmaydi. Bu ularning jinoyat ishlari yurituvdagi vazifa va vakolatlari aniq belgilanmagani bilan bog'liq. Jumladan, o'rganilgan jinoyat ishlaridan birortasida sud muhokamasida pedagog yoki psiholog ishtirok etmagan, ishni sudga qadar yuritish bosqichida sanoqli hollarda ishtirok etgan bo'lsa-da, ularning ishtiroki passivligi ko'rinadi. Jinoyat ishida pedagog yoki psihologning ixtisosligi va ish tajribasi haqida ma'lumotlar mavjud emas.

Voyaga yetmaganlarning huquqlarini qo'shimcha kafolatlashga xizmat qilishi lozim bo'lgan mazkur institut amalda tergovchi uchun yuk, voyaga yetmagan uchun esa foydasiz rasmiyatchilikka aylanib qolmoqda (Demkina, 2018).

Shu tariqa, psiholog va pedagogni tanlashda voyaga yetmaganning yoshga oid, psixologik xususiyatlariga, uning faoliyat turiga hamda protsessual maqomiga mos

keladigan individual, tabaqalashtirilgan (differensiyallashtirilgan) yondashuvning mavjud emasligi ko'p hollarda ushbu mutaxassislarining samarasiz ishtirok etishiga olib kelmoqda (Shuvalova, 2019a).

Konseptual ziddiyat shundan iboratki, formal modelda ota-ona va (yoki) pedagog qatnashsa, huquq ta'minlanishi haqidagi yondashuv mavjud. Biroq funksional yondashuvda ularning xulosasi qarorga ta'sir qilmasa, huquq ta'minlanmagan hisoblanadi. Qonuniy vakil, pedagog va psixolog institutlari O'zbekistonda normativ jihatdan mavjud bo'lsa-da, ularning xulosalari qaror qabul qilishga majburiy ta'sir ko'rsatmaydi. Bu voyaga yetmaganlarning protsessual huquqlarini funksional emas, formal tarzda ta'minlashga olib keladi.

Ilmiy adabiyotlarda pedagog (psixolog)ning jinoyat sud ish yurituvda mustaqil ishtirokchi ekanligi yoki unga mutaxassisning protsessual maqomi tatbiq etilish-etilmasligi masalasida yagona fikr mavjud emas. Olimlarning aksariyati pedagog (psixolog) mutaxassis maqomiga ega deb hisoblaydi, shu bilan birga, pedagog (psixolog)ni jinoyat sud ish yurituvining mustaqil ishtirokchisi sifatida e'tirof etuvchi nuqtayi nazar hamda xorijiy amaliyot ham mavjud. Jumladan, A.N. Doshchitsin va S.A. Lugovsevaning fikricha, pedagog mustaqil huquqiy maqomga ega, psixolog esa mutaxassis hisoblanadi (Doshchitsyn, 2015; Lugovtseva, 2004). S.A. Roganov va T.L. Konstantinovaning fikriga ko'ra, pedagog jinoyat protsessida hech qanday mustaqil funksiyani bajarmasligidan kelib chiqib, jinoyat-protsessual qonunchilikka o'zgartish kiritib, "pedagog" tushunchasini chiqarib tashlash va shu bilan birga, "psixolog" tushunchasini saqlab qolish maqsadga muvofiq (Roganov & Konstantinova, 2015).

O.Y. Andriyanovanning fikricha, pedagog voyaga yetmaganlarga oid jinoyat ishlari bo'yicha jinoyat sud ish yurituvda faqat psixologning ishtirokini ta'minlash imkoni bo'lmagan holatlarda istisno tariqasida ishtirok etishi mumkin (Andriyanova, 2006).

Ayrim tadqiqotchilar esa mazkur masalani yanada chuqur tahlil qilib, pedagog va psixolog uchun bir xil protsessual maqom berilishi maqsadga muvofiq emas, har biri uchun alohida huquqlar, majburiyatlar hamda javobgarlikni belgilash zarur, degan fikrni ilgari suradilar (Mironova, 2022; Shuvalova, 2019b).

K. A. Avaliani (2009) voyaga yetmaganni so'roq qilish jarayonida pedagog yoki psixologning ishtirokini mutaxassis yoki guvoh bilan qiyoslab bo'lmazligi, balki o'ziga xos funksiyalari va buning uchun muayyan huquqlari mavjud protsessual subyekt ekanligi haqida fikr bildirgan.

Sh.F. Bagautdinov (2024) pedagog yoki psixolog tushunchasini kengaytirib murabbiyni ham ular sirasiga kiritishni taklif qilgan. Y.V. Svetkova psixolog va pedagogning ishtiroki surishtiruvchi(tergovchi)ning ishini murakkablashtirishi (Tsvetkova 2014), M.A. Shuvalova (2019a) taklif qilingan shaxslar o'zining ishtirokidan ko'zlangan vazifani bajarmasdan nominal vazifani bajarishi haqida fikr bildirgan.

Tergov harakatlari (so'roqlar)ni o'tkazishda pedagog yoki psixologning ishtirok etishi hech qanday muhim axborot bermaydi, ushbu shaxslar tomonidan tergovchiga amaliy yordam ko'rsatilmaydi. Psixolog yoki pedagogni so'roqqa chaqirish faqatgina tergovchi hamda tergov harakatlarida ishtirok etuvchi boshqa shaxslar uchun tashkiliy muammolarni yuzaga keltiradi (Tsvetkova, 2021).

Fikrimizcha, pedagog va psixologning mutaxassisdan farqi faqatgina protsessual huquqlar hajmi bilan emas, balki uning funksiyasidan kelib chiqib baholanishi zarur. Jumladan, pedagog va psixolog mutaxassisdan farqli ravishda so'roq tugaganidan so'ng so'roq bayonnomasi bilan tanishib, bayonnomadagi yozuvlarning to'g'riligi, to'liqligi haqida o'z fikrlarini yozma shaklda bayon etishga haqli.

Ayrim olimlarning fikriga ko'ra, tergov hamda boshqa protsessual harakatlarda ishtirok etayotgan pedagog (psixolog)ga huquqni himoya qiluvchi rol yoki voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish funksiyasi yuklangan (Levchenko & Mishchenko, 2012).

Ilmiy jihatdan bu bahs protsessual funksiyalar nazariyasi va pedagog (psixolog) maqomining protsessual tabiati: kafolat mexanizmi yoki himoya subyekti ekanligi masalasi bilan bevosita bog'liq. Pedagog (psixolog)ning himoya funksiyasi subyekti sifatida talqin qilinishi protsessual rollar aralashuviga olib keladi. Har qanday pedagog voyaga yetmaganning protsessual huquqlarini himoya qilish masalalarida yetarli bilimga ega emasligi sababli agar pedagogga "huquqni himoya qilish" funksiyasi yuklansa, u professional himoya standartlariga javob bermasligi mumkin.

Aynan shu nuqtayi nazardan Sh. Xamrayevaning (Khamraeva, 2025) JPKda pedagogni mustaqil subyekt sifatida belgilash haqidagi taklifini yetarlicha asoslantirilmagan, deb hisoblaymiz, sababi amaldagi qonunchilikda pedagog ishtiroki mavjud bo'lib, muammo pedagog ishtirokining normativ tartibga solinmagani emas, balki mazkur institutning to'liq ishlamasligi bilan bog'liq.

Ayni vaqtda F. Bagautdinovning (2024) pedagog, psixologning muayyan tergov harakatida bir marotaba ishtiroki emas, tergov va sud muhokamasi davomida muayyan voyaga yetmagan ayblanuvchi, jabrlanuvchini doimiy kuzatuv zarurligi haqidagi fikrlarini asosli deb hisoblaymiz. Sababi faqat tergov harakatida pedagog, psixologning ishtiroki voyaga yetmaganning manfaatlarida ko'ra bevosita surishtiruv va tergovning manfaatiga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda umume'tirof etilgan psixolog tushunchasi mutaxassislarning juda keng doirasini qamrab oladi. Jumladan, psixologik ta'lim olgan, ammo hech qachon psixologik yordam ko'rsatish amaliyoti bilan shug'ullanmagan shaxslar, shuningdek, tegishli maxsus ta'limga ega bo'lmagan, biroq shtatdagi psixolog lavozimini egallab turgan shaxslar ham ushbu tushuncha doirasiga kiradi.

Voyaga yetmagan jabrlanuvchi bilan ishlaydigan psixologni tanlash tasodifiy bo'lishi mumkin emasligi aniq. U tegishli tayyorgarlikka hamda voyaga yetmaganlar bilan ishlash bo'yicha yetarli tajribaga ega bo'lishi lozim (Naumova, et al., 2020).

O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonuni 3-moddasiga (Republic of Uzbekistan, 2024) muvofiq, ta'lim tashkilotida qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuzilgan mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi hamda tegishli ma'lumotga, kasbiy tayyorgarlikka va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan jismoniy shaxs pedagogdir. Ya'ni ushbu modda mazmuniga ko'ra, faqat mehnat shartnomasi asosida ta'lim va tarbiya sohasida kasbiy faoliyatni amalga oshiruvchi shaxs pedagog sifatida jalb qilinishi mumkin.

Biroq jinoyat protsessida, xususan, voyaga yetmaganlar ishtirokidagi ishlarda pedagogning ishtirok etishi uning ta'lim tashkilotida mehnat shartnomasi asosida ishlayotgan-ishlamayotganiga emas, balki bola bilan ishlash bo'yicha psixo-pedagogik kompetensiyaga egaligiga bog'liq bo'lishi lozim. Amalda esa mazkur qonun normasi pedagog tushunchasini tor talqin qilishga olib kelib, jinoyat protsessida pedagog sifatida faqat maktab yoki boshqa ta'lim muassasalarida ishlovchi shaxslarni jalb qilish imkonini qoldirmoqda. Bu esa qator huquqiy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, jinoyat protsessida pedagogning asosiy vazifasi ta'lim berish emas, balki voyaga yetmaganning psixologik holatini barqarorlashtirish, uning protsessual harakatlarni

tushunishi va ularda bosimsiz ishtirok etishini ta'minlashdan iborat. Mazkur funksiya ta'lim tashkilotida mehnat qiluvchi har qanday pedagogga emas, balki maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan psixolog-pedagog, ijtimoiy xodim yoki bolalar bilan ishlash bo'yicha mutaxassisga xosdir. Demak, pedagogni faqat mehnat shartnomasi bilan bog'lash uning jinoyat protsessual funksiyasi tabiatiga mos kelmaydi.

Ikkinchidan, xalqaro standartlarda (United Nations General Assembly, 1985), BMT Bola huquqlari qo'mitasi izohlari (United Nations Committee on the Rights of the Child, 2019), Yevropa Kengashining *child-friendly justice* qo'llanmalari (Council of Europe, 2010) bolalar ishtirokidagi jinoyat ishlarida "pedagog yoki boshqa tegishli mutaxassis" ishtiroki nazarda tutiladi. Bu yerda asosiy urg'u shaxsning institutsional mansubligiga emas, balki uning bola manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan kasbiy salohiyatiga qaratilgan. Jinoyat protsessida esa pedagog tushunchasining mehnat shartnomasi bilan cheklanishi mazkur xalqaro yondashuvga to'liq mos kelmaydi.

Uchinchidan, mazkur yondashuv voyaga yetmaganlarning protsessual huquqlarini ta'minlash nuqtayi nazaridan ham zaif hisoblanadi. Chunki jinoyat protsessining turli bosqichlarida (surishtiruv, tergov, sud muhokamasi) bola bilan ishlash uchun har doim ham uning ta'lim muassasasidagi pedagogni jalb qilish imkoniyati mavjud emas. Natijada pedagog ishtiroki formal tus olishi yoki umuman ta'minlanmasligi mumkin, bu esa bolaning qayta travmatizatsiyasiga va uning protsessual huquqlari nominal ta'minlanishiga olib keladi.

Agar taktik mulohazalarga ko'ra voyaga yetmagan shaxsni so'roq qilishda u bilan ishonchli munosabatlari shakllangan pedagogning ishtiroki maqsadga muvofiq deb topilsa-yu, ammo mazkur pedagog endi ta'lim muassasasida ishlamaydigan bo'lsa, mehnat munosabatlarining tugatilgani jinoyat protsessida pedagog funksiyasini bajarishga to'sqinlik qilmasligi lozim. Ayniqsa, ushbu jinoyat ishi doirasida ayrim tergov harakatlari mazkur o'qituvchi ishtirokida uning ishdan bo'shatilishigacha amalga oshirilgan hollarda bunday to'siqqa yo'l qo'yilmasligi maqsadga muvofiqdir (Tetyuev, 2024).

Zarur ish tajribasiga ega bo'lmagan pedagogni jalb qilish tergov harakati o'tkazilishiga aksincha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki bu yerda aynan ish tajribasi va undan kelib chiqadigan bolaga yondashuv topa olish, u bilan psixologik muloqot o'rnatish, ko'rsatma berishga moyil qilish, shuningdek, pedagog bilan voyaga yetmagan shaxs o'rtasidagi munosabatlarning xususiyati ustuvor ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi Qonunning 3-moddasi (Republic of Uzbekistan, 2024) ta'lim sohasidagi mehnat munosabatlarini tartibga solish uchun maqbul bo'lsa-da, uni jinoyat protsessiga mexanik ravishda tatbiq etish ilmiy va amaliy jihatdan asosli emas. Jinoyat protsessida pedagog ishtirokini tartibga solishda alohida – protsessual-funksional yondashuv qo'llanishi, ya'ni pedagog sifatida bolalar bilan ishlash bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan shaxslarni jalb qilish imkoniyatini qonun darajasida kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikka muvofiq, voyaga yetmagan gumon qilinuvchini yoki ayblanuvchini so'roq qilishda pedagog va (yoki) psixolog ishtirok etishi mumkin. Ushbu norma, bir tomondan, voyaga yetmagan ayblanuvchining protsessual huquqlarini qo'shimcha kafolatlar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lsa-da, ikkinchi tomondan, voyaga yetmagan jabrlanuvchi uchun aynan shunday huquqning qonun darajasida mustahkamlanmaganligi jiddiy ilmiy va amaliy muammolarni keltirib chiqaradi.

Birinchidan, voyaga yetmagan jabrlanuvchi jinoyat protsessida psixologik jihatdan ayblanuvchidan kam zaif shaxs hisoblanmaydi. Aksincha, jinoyat oqibatida yetkazilgan



ma'naviy va jismoniy ziyon tufayli jabrlanuvchi bola ko'p hollarda yanada og'ir ruhiy holatda bo'ladi. Shunga qaramay, qonunchilik pedagog yoki psixolog ishtirokini kafolatli tarzda aynan gumon qilinuvchi(ayblanuvchi)ga nisbatan nazarda tutib, jabrlanuvchiga esa ushbu mexanizmni ixtiyoriy yoki umuman nazarda tutilmagan holda qoldirmoqda. Bu esa protsessual kafolatlarining asimmetriyasiga olib keladi.

Ikkinchidan, mazkur yondashuv bolaning jinoyat protsessidagi maqomiga qarab uning himoya darajasini farqlashga asoslanadi. Voyaga yetmagan shaxs ayblanuvchi sifatida ishtirok etgan taqdirda uning psixologik ehtiyojlari e'tirof etiladi, jabrlanuvchi sifatida ishtirok etgan taqdirda esa ushbu ehtiyojlar ikkinchi darajaga suriladi. Bunday differentsiatsiya bolaning protsessual maqomidan qat'i nazar, uning zaifligi ustuvor ahamiyatga ega bo'lishi lozim, degan xalqaro standartlarga zid hisoblanadi.

Uchinchidan, BMTning Bolalar – jabrlanuvchi va guvohlar ishtirokidagi jinoyat ishlari bo'yicha rahbariy ko'rsatmalari (United Nations, 2005), shuningdek, Yevropa Kengashining bolalarga nisbatan do'stona odil sudlov to'g'risidagi qo'llanmalariga muvofiq (Council of Europe, 2010), voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvohlarni so'roq qilishda pedagog, psixolog yoki boshqa tegishli mutaxassislarning ishtirokini ta'minlash davlatning pozitiv protsessual majburiyati sifatida belgilangan.

To'rtinchidan, pedagog yoki psixolog ishtirokining kafolatlanmaganligi amaliyotda voyaga yetmagan jabrlanuvchining qayta travmatizatsiyasiga sabab bo'lishi mumkin. So'roq jarayonida bolaga noo'rin savollar berilishi, uning hissiy holati hisobga olinmasligi yoki ayblanuvchi bilan bilvosita psixologik to'qnashuv yuzaga kelishi ehtimoli mavjud. Bu esa bolaning inson qadr-qimmatiga, shaxsiy hayoti daxlsizligiga va protsessual huquqlariga putur yetkazadi.

Beshinchidan, mazkur huquqning qonuniy tarzda mustahkamlanmaganligi tergovchining ixtiyorini haddan tashqari kengaytiradi. Voyaga yetmagan jabrlanuvchi uchun pedagog yoki psixolog ishtirokini ta'minlash tergov organining xohishiga bog'liq holda qolmoqda, bu esa protsessual qarorlarning yagona standart asosida qabul qilinishini ta'minlamaydi va huquqni qo'llash amaliyotida turli yondashuvlarni keltirib chiqaradi.

Ma'lumki, voyaga yetmagan shaxs, ayniqsa, 16 yoshga to'lmagan bola, psixologik jihatdan yuqori darajada zaif subyekt hisoblanadi. U stressga chidamsiz, tashqi bosimga tez beriluvchan, protsessual harakatlarning huquqiy va psixologik oqibatlarini to'liq anglab yetmasligi mumkin. Shu sababli pedagog yoki psixologning majburiy ishtiroki voyaga yetmaganning psixik barqarorligini saqlash va ishonchli ko'rsatmalar olish uchun obyektiv zarurat hisoblanadi. Shu bilan birga, o'n olti yoshga to'lgan bo'lsa ham, ruhiy kasallikka chalingan yoki ruhiy rivojlanishda ortda qolgan voyaga yetmagan huquqiy ahamiyatga ega axborotni qabul qilish, uni to'g'ri qayta ishlash, o'z fikrini erkin va mustaqil bayon etish qobiliyati jihatidan cheklangan bo'ladi.

Ilmiy psixologiya va yuvenal yustitsiya doktrinasida bunday shaxslar yoshidan qat'i nazar, zaif guruhga mansub deb ko'riladi. Shu bois ularni so'roq qilishda pedagog yoki psixolog ishtirokini majburiy belgilash tenglashtiruvchi protsessual kafolat sifatida xizmat qiladi. Jinsiy daxlsizlikka qarshi jinoyatlar voyaga yetmagan psixikasiga eng kuchli salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jinoyatlar toifasiga kiradi, yuqori darajada qayta travmatizatsiya xavfini yuzaga keltiradi. Shu sababli bunday ishlar bo'yicha aynan psixologning majburiy ishtiroki belgilanishi ilmiy jihatdan to'liq asoslidir. Psixolog so'roq jarayonini bola uchun xavfsiz shaklda olib borish, qayta jarohatlanishning oldini olish, ko'rsatmalarning ishonchli va barqaror bo'lishini ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Rossiya Federatsiyasi JPK 280-moddasi (Russian Federation, 2001), Qozog'iston Respublikasi JPK 215-moddasida (Republic of Kazakhstan, 2014) jabrlanuvchi(guvoh)ni so'roq qilishda pedagog yoki psixologning ishtiroki ko'zda tutilgan.

Shu nuqtayi nazardan, jinoyat-protsessual qonunchilikda pedagog va (yoki) psixolog ishtirokini faqat voyaga yetmagan gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi bilan cheklash ilmiy jihatdan asoslanmagan. Voyaga yetmagan jabrlanuvchi va guvohlarning ham jinoyat protsessida maxsus psixologik himoyaga muhtoj shaxslar ekanini hisobga olgan holda ular uchun ham pedagog yoki psixolog ishtirokini qonun darajasida kafolatlash zarur. Bunday yondashuv bolaning protsessual maqomidan qat'i nazar, uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga xizmat qilib, milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga yaqinlashtiradi.

Jinoyat sud ish yurituvida voyaga yetmaganlar ishtirok etganda psixologni jalb qilishning maqsadi – bolaning huquqlari va psixologik xavfsizligini ta'minlashdan iborat. Biroq amalda psixolog ikki xil tabiatga ega tizim kesishmasida harakat qiladi:

- protsessual tizim – huquqiy reglament, vaqt cheklovi va isbotlash maqsadlariga asoslangan;
- psixologik yordam tizimi – ishonch, ixtiyoriylik, vaqt va terapevtik munosabat talab qiladi.

Natijada mazkur ikki tizimning maqsad va usullari o'rtasida institutsional ziddiyat yuzaga keladi. Psixolog bir vaqtning o'zida ham bolani qo'llab-quvvatlovchi shaxs, ham protsessual harakat ishtirokchisi vazifasini bajaradi. Bu ikki rol ba'zan bir-biriga zid, sababi yordam – ishonchni, protsess esa xolislik va bola bilan professional masofa saqlashni talab qiladi. Bundan tashqari, jinoyat protsessining maqsadi haqiqatni aniqlash bo'lsa, psixologik yordamdan maqsad shaxsning ruhiy barqarorligini saqlashdan iborat.

Tergov harakati davomida voyaga yetmagan bilan qisqa muddatli muloqot psixologga shaxsning to'liq psixologik portretini shakllantirish hamda unga samarali psixologik yordam ko'rsatish imkonini bermaydi. Shu sababli psixolog ishtiroki ko'p hollarda formal xarakter kasb etadi. Psixologning real protsessual ahamiyati uning maxsus tayyorgarligi, bola bilan oldingi ish tajribasi hamda protsessual funksiyalarining aniq normativ tartibga solinishiga bog'liq. Tergov harakatlari doirasida psixologning qisqa muddatli ishtiroki uning funksiyasini to'liq bajarish imkonini cheklaydi, natijada psixolog jinoyat-protsessual kafolatlarni ta'minlovchi faol subyektdan ko'ra formal ishtirokchiga aylanib qolish xavfi yuzaga keladi.

Fikrimizcha, psixologning vazifalarini huquqiy jihatdan aniqlashtirish, yuqoridagi qarama-qarshiliklarni bartaraf qilish maqsadida jinoyat protsessida psixologning funksiyasini aniqlashtirib, "bolaning psixologik xavfsizligini ta'minlovchi maxsus protsessual kafolat subyekti" sifatida belgilash maqsadga muvofiq.

Ayni vaqtda voyaga yetmagan protsess ishtirokchisiga so'roqdan avval psixolog bilan alohida tayyorlov muloqoti o'tkazish, bolaning stress darajasini baholash, muloqot strategiyasini ishlab chiqishni majburiy tartib sifatida belgilash psixologik yordam mantig'ini protsessga integratsiya qiladi. Muloqot natijasi bo'yicha psixolog bolaning psixologik holati, so'roq uslubini moslashtirishi, muloqot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha protsessual tavsiya berishi, bolaning tushunish darajasini baholashi uning formal ishtiroki muammosini hal qilishga yordam beradi.

Xalqaro amaliyotda (*child-friendly justice* modellari) bola bir marotaba maxsus muhitda so'roq qilinadi, psixolog muloqot jarayonini boshqaradi, boshqa ishtirokchilar kuzatuv xonasida bo'ladi.



Psixologning jinoyat sud ish yurituvidagi ishtiroki samaradorligi uning formal jalb etilishi bilan emas, balki protsessual maqomining aniq belgilanishi, tergovdan oldingi psixologik tayyorlov, maxsus malaka tizimi va protsessual hamda psixologik funksiyalarni institutsional ajratish orqali ta'minlanishi mumkin. Mazkur choralar psixologik yordam va protsessual maqsadlar o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Xulosa

Psixolog va pedagogning muhim roliga qaramasdan, ushbu subyektlarning jinoyat sud ish yurituvidagi faoliyati bir qator muammolardan xoli emas. Jumladan, mutaxassislar huquq normalariga formal rioya qilish maqsadidagina jalb etiladi; jinoyat sud ish yurituvida psixolog va pedagoglarning vakolatlari doirasi cheklangan; jinoyat protsessi subyektlari tomonidan pedagog va psixolog ishtirokining ahamiyati to'liq anglanmasligi mutaxassislarning "nominal" rol o'ynashiga olib keladi; mutaxassislarning o'zlarida javobgarlik darajasining pastligi natijasida ularning maxsus bilimlari amaliyotda qo'llanmaydi; pedagog va psixologlarni jalb qilish jarayonining huquqiy tartibga solinishi yetarli darajada emas (Napsokov & Tanashev, 2023).

Umuman jinoyat ishlari yurituvida pedagog (psixolog) ishtiroki bilan bog'liq muammolar pedagog (psixolog)ning maqomi normativ jihatdan tartibga solinmaganligi, tergovchi tomonidan muayyan pedagog yoki psixologni tanlash asoslari, murakkabligi va noaniqligi, muayyan pedagog (psixolog)ning dastlabki tergov davomida barcha protsessual harakatlarda ishtirok etish imkoniyati masalasining hal etilmaganligi bilan bog'liq. Bu ziddiyat voyaga yetmaganlarning protsessual huquqlari amalda nega ta'minlanmayotganini ilmiy jihatdan tushuntiradi.


REFERENCES

1. Adami, R. (2023). The best interests of the child as a legal concept. In *The Rights of the Child: Legal, Political and Ethical Challenges* (pp. 151–154). Brill.
2. Andriyanova, O. Yu. (2006). Osobennosti sudoproizvodstva po ugolovnym delam o prestupleniyakh nesovershennoletnikh [*Peculiarities of criminal proceedings in cases of crimes committed by minors*] (Abstract of PhD dissertation). Vladimir Law Institute, Russia.
3. Avaliani, K. A. (2009). Osobennosti dosudebnogo proizvodstva po ugolovnym delam o prestupleniyakh nesovershennoletnikh [*Features of pre-trial proceedings in criminal cases involving minors*] (Abstract of PhD dissertation). Management Academy of the Ministry of the Interior of Russia.
4. Bagautdinov, Sh. F. (2024a). *Proceedings in criminal cases on crimes committed by and against minors: Issues of theory and practice* (Abstract of PhD dissertation). Kazan.
5. Bagautdinov, Sh. F. (2024b). *Proceedings in criminal cases on crimes committed by and against minors: Issues of theory and practice* (Abstract of PhD dissertation). Kazan.
6. Committee on the Rights of the Child. (2005, December 7). *General comment No. 7: Implementing child rights in early childhood* (CRC/C/GC/7). United Nations Committee on the Rights of the Child. <https://hrlibrary.umn.edu/russian/crc/Rcrcomm7.html>
7. Council of Europe. (2010). *Guidelines of the Committee of Ministers of the Council of Europe on child-friendly justice*. Council of Europe Publishing. <https://rm.coe.int/16804b2cd3>

8. Demkina, M. S. (2018). *Pedagogue (psychologist) as a participant in criminal proceedings: The pre-trial stage* (Abstract of PhD dissertation). Samara.
9. Doshchitsyn, A. N. (2015). *Procedural and forensic features of conducting investigative actions involving young children*. Yurlitinform.
10. Galimov, O. Kh. (2001). *Young children in criminal proceedings*. Piter.
11. Khamraeva, Sh. I. (2025). *Improving the examination of criminal cases involving minors in courts of first instance* (Abstract of PhD dissertation). Tashkent.
12. Levchenko, O. V., & Mishchenko, E. V. (2012). *Legal foundations of criminal proceedings involving minors*. INFRA-M.
13. Lugovtseva, S. A. (2004). *Peculiarities of judicial examination of criminal cases involving minors* (Abstract of PhD dissertation). Saint Petersburg.
14. Mensah, C. M. (2024). Institutional responses to children in conflict with the law. In *Children's Rights in Regional Human Rights Systems* (pp. 263–265). Intersentia.
15. Mironova, G. A. (2022). Pokazaniya nesovershennoletnego poterpevshego: Problemy formirovaniya, proverki i ispolzovaniya v ugovnom dokazatelstve [*Testimony of a minor victim: Problems of formation, examination and use in criminal evidence*] (Abstract of PhD dissertation). Omsk Academy of the Ministry of Internal Affairs of Russia.
16. Naumova, A. A., Galanina, A. S., & Batanov, A. N. (2020). Psychologist as a subject of criminal procedure. *Young Scientist*, 7(297), 118–119. <https://moluch.ru/archive/297/67289>
17. Nadelyaeva, T. V. (2018). *Peculiarities of the procedural form of administering justice in criminal cases involving minors in courts of first instance* (Abstract of PhD dissertation). Yekaterinburg.
18. Napsokov, A. R., & Tanashev, B. V. (2023). Legal status of a psychologist and a pedagogue as participants in criminal proceedings. *Gaps in Russian Legislation*, 16(5).
19. Republic of Kazakhstan. (2014). *Criminal Procedure Code of the Republic of Kazakhstan*. <https://adilet.zan.kz/>
20. Republic of Uzbekistan. (1994). *Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan*. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/111460>
21. Republic of Uzbekistan. (2024). *On the status of a pedagogue*. № LRU-901. <https://lex.uz/docs/-6786401>
22. Roganov, S. A., & Konstantinova, T. L. (2015). On the participation of a pedagogue during interrogation. *Leningrad Law Journal*, 2(40). <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-ob-uchastii-pedagoga-pri-proizvodstve-doprosa>
23. Russian Federation. (2001). *Criminal Procedure Code of the Russian Federation*. <http://pravo.gov.ru/>
24. Shestakova, L. A. (2015). *Implementation of the concept of juvenile justice in proceedings involving minors in the Russian Federation: Genesis, current state and prospects* (Abstract of PhD dissertation). Samara.
25. Shuvalova, M. A. (2019a). *Participation of a psychologist and a pedagogue in criminal proceedings* (Abstract of PhD dissertation). Saint Petersburg.
26. Shuvalova, M. A. (2019b). Pedagogue and psychologist as two independent procedural figures in criminal proceedings. *Bulletin of the Saint Petersburg University of the Ministry of Internal Affairs of Russia*, 3(83), 118–123.
27. Tetyuev, S. V. (2024). Pedagogue (psychologist) as a participant in criminal proceedings in Russia and Moldova: General and specific features. *Bulletin of South Ural State University. Series Law*, 24(2), 63–75. <https://doi.org/10.14529/law240210>



28. Tsvetkova, E. V. (2014). *Evidence in pre-trial proceedings in criminal cases involving minors* (Abstract of PhD dissertation). Moscow.
29. Tsvetkova, E. V. (2021). *Minor participants in criminal proceedings*. Vladimir State University Publishing House.
30. United Nations Committee on the Rights of the Child. (2019). *General comment No. 24 (2019) on children's rights in the child justice system* (CRC/C/GC/24). United Nations. <https://www.ohchr.org/en/documents/general-comments-and-recommendations/general-comment-no-24-2019-childrens-rights-child>
31. United Nations General Assembly. (1985). *United Nations standard minimum rules for the administration of juvenile justice ("The Beijing Rules")* (A/RES/40/33). <https://www.un.org/ru>
32. United Nations. (2005). *Guidelines on justice in matters involving child victims and witnesses of crime* (ECOSOC Resolution 2005/20). https://www.unodc.org/pdf/criminal_justice/Guidelines_on_Justice_in_Matters_involving_Child_Victims_and_Witnesses_of_Crime.pdf
33. Zombory, K. (2024). Children's Rights in the Inter-American human rights system. In *Children's Rights in Regional Human Rights Systems* (pp. 201–204). Intersentia.



KRIMINOLOGIYA VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: [HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2](https://dx.doi.org/10.51788/TSUL.CCJ.6.2).